

**MAMLAKATIMIZDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH VA O'QITISHNING YANGI USULLARI:
XORIJIY TAJRIBALARNI JALB ETISHNING AHAMIYATI**G'offorova B.R.¹*Annotatsiya:*

Mazkur maqolada bugungi kunda O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganishga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ushbu yo'nalishda qabul qilingan farmon va qarorlar, ularning amaliy natijalari hamda istiqbolda kutilayotgan samaralar haqida fikr yuritiladi. Ayniqsa, yoshlarning chet tillariga, xususan ingliz tiliga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgani alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonida sifatni oshirish, o'quvchilarning puxta bilim olishini ta'minlash, darslarda zamonaviy va innovatsion metodlardan samarali foydalanish masalalari ham yoritilgan. Bu borada xorijiy tajribani izchil o'rganish e'tirof etilgan. Kelajak avlodning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalash muhim vazifa ekani qayd etilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tillar, qaror, qonun, strategiya, maktab, oliy ta'lim, integratsiya, siyosat, chet tilini o'rgatish, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jamiyatning turli jabhalarida kuzatilayotgan yuksalishlar bilan bir qatorda, xorijiy tillarni bilishga bo'lgan ehtiyoj ham sezilarli darajada ortmoqda. Chet tillarini o'rganishga qiziqish va intilish tobora kuchayib, yoshlar orasida bu jarayon barqaror tus olmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida rivojlangan davlatlar mehnat bozorida chet tilida erkin muloqot qila oladigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallagan, innovatsion fikrlaydigan va o'ziga xos yondashuvga ega mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida barcha sohalar singari ta'lim tizimida ham keng ko'lamlil va chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yo'nalishda qator muhim farmonlar, qarorlar, konsepsiyalar hamda davlat dasturlari qabul qilinib, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilinmoqda.

Bunga misol tariqasida, respublikamizning barcha hududlarida xorijiy tillarni, ayniqsa, ingliz tilini o'qitish jarayonining erta bosqichdan yo'lga qo'yilganini keltirish mumkin. Umumta'lim maktablarida birinchi sinfdan boshlab darslar o'yin shaklida va og'zaki nutqni rivojlantirish asosida tashkil etilishi, ikkinchi sinfdan esa alifbo, o'qish hamda grammatika qoidalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirish tizimi joriy etildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ayrim ixtisoslik fanlarini, xususan, texnik va xalqaro yo'nalishdagi fanlarni chet tillarida o'qitish amaliyoti kengaytirildi. Umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va pedagoglarini xorijiy tillar bo'yicha zamonaviy darsliklar hamda o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarda qayta nashr etish va bepul yetkazib berish tizimi ham yo'lga qo'yildi.

Innovatsiyalar bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga kirib kelib, shaxslararo hamda ishbilarmonlik munosabatlarini ancha yengillashtirmoqda. Albatta, bu jarayon ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. So'nggi yillar davomida pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zarurati tufayli o'z o'qitish metodlarini sezilarli darajada yangiladilar va takomillashtirdilar.

¹ G'offorova Bahora Rayimjon qizi, Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti 1-bosqich talabasi

Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maktabda chet tilini o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad — o'quvchilarda tilga nisbatan qiziqishni kuchaytirish hamda ularning xorijiy tilda muloqot qilish ko'nikmalarini maktab yoshidan boshlab shakllantirishdir. Boshlang'ich sinflarda dars beruvchi chet tili o'qituvchisi mashg'ulotlarni imkon qadar qiziqarli va interfaol tarzda olib borishi lozim. Ayniqsa, kichik yoshdagi o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda she'rlar, qiziqarli qo'shiqlar va turli lingvistik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. Bu usullar orqali bolalarning lug'at boyligi kengayadi, talaffuz va og'zaki nutq malakalari mustahkamlanadi.

Yangilanib, izchil taraqqiy etib borayotgan O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'zlashtirish borasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida Prezidentimizning 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etilganini keltirish mumkin. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19 yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 34-son qaroriga asosan, 2022-yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi qonun doirasida Xalq ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan Agentlikning byudjetdan tashqari jamg'armasiga bir martalik 15,0 milliard so'm miqdorida moliyaviy yordam ajratildi. Bu esa xorijiy tillarni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globalashuv jarayonlari, texnika va texnologiyalarning jadal rivoji hamda xalqaro hamkorlik aloqalarining kengayishi aholi, ayniqsa yoshlar orasida chet tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va talabning ortishiga sabab bo'lmoqda.

Agentlik tashabbusi bilan chekka hududlarda joylashgan yoki xorijiy tillarni o'qitish ko'rsatkichlari past bo'lgan ta'lim muassasalari pedagoglarining malakasini oshirish maqsadida maxsus mobil guruhlar tuzildi. Ushbu guruhlar respublikada faoliyat olib borayotgan nodavlat ta'lim muassasalari hamda xorijiy hamkor tashkilotlar mutaxassislaridan shakllantirildi. Mazkur mobil jamoalar tomonidan kaskad usuli asosida hududlarda xorijiy tillarni o'qitish va keng targ'ib etish bo'yicha trenerlar tayyorlanmoqda. Shuningdek, ular joylardagi chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etib kelmoqda.

Mazkur yo'nalishda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tomonidan tashkiliy, o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot sohalarida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish jarayonida jahonda o'zini oqlagan ilg'or metodikalar asosida ish yuritish, shuningdek, "bog'cha – maktab – oliy ta'lim – korxonalar" tamoyiliga asoslangan uzluksiz ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, aholining turli qatlamlari uchun mos metodik tavsiyalar ishlab chiqishni muvofiqlashtirish kabi vazifalar izchil amalga oshirilmoqda.

Agentlik qisqa vaqt ichida uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlari hisoblangan vazirlik va idoralar, xorijiy til ta'limi bilan shug'ullanayotgan mahalliy hamda xalqaro tashkilotlar, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishga erishdi va yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Britaniya Kengashi, AQShning O'zbekistondagi elchixonasi, Gyote Instituti, Yaponiya va Koreya xalqaro hamkorlik agentliklari, At Tanal Al Arabi arab tilini o'qitish va test tizimi markazi, Istanbul Aydin Universiteti hamda Macmillan, Oxford University Press, Pearson, Klett kabi nashriyotlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Xorijiy tillarni xalqaro talablar darajasida o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan "Chet tilini bilishning umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" — CEFR mezonlari asosida ish olib borilmoqda. Ushbu jarayonga angliyalik mutaxassislar Rod Bolbayto va Devis Alan boshchiligidagi ekspertlar guruhi jalb etildi.

Bundan tashqari, xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirish salohiyatiga ega talabalar uchun maxsus IELTS dasturi asosida interfaol mashg'ulotlar tashkil etilib, Buyuk Britaniya, AQSh, Vengriya, Turkiya hamda Yangi Zelandiyadan 20 dan ortiq mutaxassislar jalb qilindi. Respublika oliy ta'lim muassasalari va Britaniya Kengashi hamkorligida amalga oshirilgan PRESETT loyihasi doirasida chet tili o'qituvchilarini tayyorlashga ixtisoslashgan 18 ta oliy ta'lim muassasasi ishtirok etdi. Xalqaro hamkor sifatida Buyuk Britaniyaning Norich Til o'qitish instituti hamda Ist Angliya universitetining loyihaga qo'shilishi chet tili mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga salmoqli hissa qo'shdi.

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy shaklga kirishi va globallashtirish jarayonining jadallashuvi xorijiy tillarni o'qitish hamda o'rganish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu yo'nalishga e'tiborning ortishi nafaqat ta'lim sifatini oshirishga, balki xalqimizning dunyoqarashi kengayishiga, tafakkuri boyishiga va milliy o'zligini chuqur anglashiga ham xizmat qilmoqda.

O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasida belgilangan 3- va 4-maqсадlarda har yili ta'lim muassasalariga 500 nafar "til egalari" bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, 1 000 nafar tarbiyachi va pedagoglarni xorijiy davlatlarda malaka oshirish hamda stajirovkaga yuborish vazifalari ko'zda tutilgan. 29- va 30-maqсадlarda esa 2 million nafar fuqaroni kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish, maktab bitiruvchilarining kamida ikki xorijiy til va bitta kasb egallashini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bundan tashqari, 30- va 31-maqсадlar doirasida ilmiy hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual o'yinlar va chet tillarini o'rganishga keng jalb etish orqali kamida 2 million nafar yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish eng muhim vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Xorijiy tillarni o'rganish bugungi kunda nafaqat foydali, balki tarixan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ota-bobolarimiz ko'plab tillarni bilishga katta e'tibor berganlari tarixiy haqiqatdir. Masalan, mashhur olim Ahmad al-Farg'oniy 72 tilda bemalol muloqot qilgan, jadidlar rahbari Mahmudxo'ja Behbudiy esa o'zbek, rus, arab, fors, turk tillarini bilgan, ayrim ma'lumotlarga ko'ra fransuz tilini ham egallagan. U dunyoning turli davlatlariga borib, kitob va darsliklarni sotib olib, Turkistonda ularni tarjima qilgan va nashr etgan. Bu borada qiziqarli dalil sifatida "Oyna" jurnalining 1913-yildagi ilk sonida nashr etilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqolasini keltirish mumkin. Unda muallif Turkistonliklarning zamon bilan hamnafas bo'lishi, turli sohalardagi yangiliklardan xabardor bo'lishi uchun eng kamida to'rtta tilni bilishlari lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, "Til masalasi" nomli maqolasida o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rganishda avvalo ona tilini chuqur egallash muhimligi uqtiriladi, chunki shaxs o'z tilini yaxshi bilsa, xorijiy tillarni ham mukammal o'zlashtira oladi.

Umuman olganda, xorijiy tillarni o'rganish Yangi O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bugungi kunda bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ko'plab islohotlar mavjud. Mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati va chet tillar, xususan ingliz tilini o'rgatishga bo'lgan yondashuvlar doimiy ravishda takomillashib, o'quvchilarni yanada qiziqtirishga xizmat qilmoqda, bu esa quvonarli holatdir. Shu jihatdan, bu jarayon yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan keng integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Maqola doirasida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, xorijiy tillarning tozaligini saqlash, ularni mahalliy sharoit va ehtiyojlar asosida boyitish hamda o'rganuvchilarning nutq madaniyatini oshirishga keng jamoatchilikni jalb qilish tizimini yo'lga qo'yish;

Ikkinchidan, xorijiy tillarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash;

Uchinchidan, xorijiy tillarning respublika miqyosidagi mavqeini mustahkamlash, chet davlatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston kabi rivojlangan mamlakatlar bilan ta'lim, o'quv-uslubiy va ilmiy sohalarda hamkorlik aloqalarini kengaytirish hamda o'quvchilarning amaliy faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

To'rtinchidan, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan oliy ta'limda xorijiy tilshunoslikni uzluksiz va doimiy ravishda o'qitishni tashkil etish. Bu jarayonda nafaqat grammatik qoidalarni o'rgatish, balki o'quvchilarni xorijiy mamlakatlarda real muhitda bilimlarini oshirish imkoniyatlari bilan ta'minlash samarali usullardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot stretegiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti.2023.
2. 416. B.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022 y., 09/22/34/0048-son; 20.10.2022 y., 09/22/612/0949-son)
4. Madaminov S. Chet tillarni o'qitishda innovaion metodlarning o'rni va ularning uslubiy tahlili/ Talim tizimida xalkaro xamkorlik.<https:// anhor.uz/uz/ events/taylim-tizimida-xalqaro-hamkorlik>.
5. Ashurova D., Yuldoshev Z. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash – zamon talabi // Xalq ta'limi. – Toshkent: 2006. - № 1. – B. 16-17].
6. Mashriqzamin – hikmat bo'stoni. "Sharq" nashtiyoti – matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent – 1997. 396. B.
7. Mahmudxo'ja Behbudiy publistikasida Til o'rganishning masalasi va milliy til qadri. FarDU. Ilmiy xabarlar – Scienitific journal of the Fergana State University. Volume 30 Issue 3, 2024 – yil.